

ZIYOD BOTIR (Ertak)

Sulton Murod o'lgandan keyin o'rniga. Sulton Fotih taxtga o'tiribdi. Sulton Fotih ko'p dono, aqlli, hushyor odam ekan... Sulton Fotihning go'zallikda tengi yo'q, aqlli, o'qimishli qizi bo'lgan ekan. Bu qizni kim bir marta ko'rsa, yana ko'rsam deb orzu qilarkan. Ismi jismiga monand Qamarxon ekan. Sulton Fotih qizini jon-dilidan yaxshi ko'rarkan. O'q otishda, nayza sanchishda, tig' urishda unga teng keladigani yo'q ekan. Qamarxonga xushtor bo'lganlarning son-sanog'i yo'q ekan. Boshqa mamlakatlardan ham shahzodalar, bekszodalar oshiq bo'lib, sovchi qo'yar, ammo qiz hammasiga yo'q deb javob berarkan.

Sultonning saroyida bir usta bo'lib, hamma hunarga komil ekan. Uning yasagan asboblari Sultonga juda maqbul bo'lgani uchun saroydagi barcha ustalarning boshlig'i qilib qo'ygan ekan. Saroydagilarning kattasidan kichigi ustani hurmat qilarkan. Ustaning navqiron o'g'li bo'lib, xushsurat, o'qigan, aqlli, shijoatli yigit ekan. Bu yigitning oti Ziyod botir ekan. Botirlikda ancha shuhrat qozongan ekan. Ziyod botir ham Sultonning qizi Qamarxonga oshiq ekan.

Otasi o'g'liga hunar o'rgatmoqchi bo'lib, «O'g'lim, ko'zim tirikligida hunar o'rganib olgin», debdi. Ziyod botir ko'p vaqt o'tmasdan otasining hunarlarini o'rganib olibdi. Bir kun malika ustaga o'q-yoy buyuribdi. Usta ham otasidan yashirinchalik o'q-yoy tayyorlagan ekan. Tayyorlagan o'q-yoyni otasiga ko'rsatibdi. Otasi uni ko'rib xayratda qolibdi. O'q-yoy otasi tayyorlagan o'q-yoydan ancha yaxshi ishlangan bo'lib, o'q-yoyning qabzasiga ajoyib ruboiylar naqsh etilgan ekan. Otasi azbaroyi xursand bo'lganidan o'g'lining peshonasidan o'pib: «Balli o'g'lim, mening hunarimni o'rganib olibsan, endi hech kimga zor bo'lmaysan», debdi. So'ng o'zi tayyorlagan o'q-yoyni qoldiribdi-da, malikaga Ziyod botir ishlagan o'q-yoyni yuboribdi. Malika o'q-yoyni ko'rib qoyil qolibdi. O'q-yoy o'zining o'ylaganidan ham ziyoda bo'lgani uchun ustaga in'omlar beribdi...

Usta ancha keksayib qolgan ekan. Kasal bo'lib qolibdi, hech qanday dori-darmon kor qilmabdi. Oxiri olamdan ko'z yumibdi. Usta o'lgandan so'ng Sulton Fotih Ziyod botirni otasining o'miga tayinlab, ustalarga boshliq qilib qo'yibdi.

Kunlarning birida Sulton haramga kirsam, qizi bir kamonni o'ynab o'tirgan ekan. Kamonning ishlashini ko'rib, hayratlanibdi va qo'lga olib tomosha qilib turganda ko'zi kamolning qabzasiga yozilgan baytga tushibdi. Bunday o'qib qarasa, oshiqona yozilgan bayt. Sulton darg'azab bo'lib Ziyod botirni chaqirib:

-Buni kim yozgan? — deganida, Ziyod botir:

-Men yozdim, — debdi. Sulton:

-Hali sen shunday yaramas ishlarni ham qilasanmi, ko'namak! — deb jallod chaqirib, uni o'limga buyuribdi.

Shunda vazirlardan biri podshoning oyog'iga yiqilib, Ziyod botirning gunohini so'rabdi. Sulton vazirning so'zini yerga tashlamay, Ziyod botirni o'limdan ozod qilibdi, lekin shahardan tashqariga haydab yuboribdi.

Ziyod botir yo'l yurib, cho'l yurib, tog' bosib, qir oshib, bir necha kun deganda bir toqqa yetibdi. Bu tog' ko'kalamzor, odamning ko'nglini ochadigan xushhavo joy ekan. Ziyod botir tog'da aylanib yurib yilqi-qo'ylarini o'tlatayotgan mo'ysafidni bilib, bir kosa qimiz uzatibdi va:

-Qayerdan kelyapsan, o'g'lim? — deb so'rabdi. Ziyod botir boshiga tushgan musibatni gapirib beribdi. Cholning rahmi kelib:

-O'g'lim, endi qayoqqa borasan? — deb so'rabdi.

-E, ota, endi qayoqqa borar edim. O'z yurtimdan judo bo'lgan bir g'aribu musofirman. Hozir boshim oqqan tomonga ketayotibman, — debdi Ziyod botir.

-Men shu tog' xalqining molini boqaman, — debdi chol, — ota-bobomdan tortib hammamiz shu kasbni qilib kelimiz. Topganimga qanoat qilsang, menga o'g'il bo'la qol.

Ziyod botirga bu gap ma'qul tushibdi.

-Otajon, agar siz shuni xohlasangiz, men jonu dilim bilan roziman, — debdi u.

Shunday qilib, Ziyod botir cho'ponga o'g'il bo'lib, qo'y-yilqilarni boqib yura beribdi. Ziyod botir bu yerda palaxmonga tosh solib otishni juda yaxshi mashq qilibdi. Yirtqich hayvonlar mollarni talasa, bir tosh bilan urib o'ldiraveribdi. Ziyod botirning bu ishidan otasi ham xursand bo'libdi. Har yili yirtqich hayvonlar bir qancha molni nobud qilar ekan. Ziyod botir kelganidan so'ng mollar tinchib qolibdi. Ziyod botirning ta'riflari butun tog' xalqiga yoyilib ketibdi. Odamlar Ziyod botirga «Sangandoz botir» deb nom beribdilar. Oradan ikki yil o'tibdi. Ziyod botir shu yerda otasi bilan mol boqib yuraversin. Endi gapni Sultonning qizi Qamarxondan eshitib. Qamarxon zimdan Ziyod botirga ko'ngil qo'ygan, ichida: «Agar otam meni erga bersa, shunga bersa», deb yurar ekan. Otasi Ziyod botirni shahardan haydab yuborgandan keyin yorug' dunyo Qamarxonning ko'ziga qorong'i bo'lib, ertayu kech Ziyod botirni yodlab, kechalari yig'lab tong ottirar ekan. Ammo dardini hech kimga aytmas ekan. Qamarxonning qirq kanizi bo'lib, ulaming boshlig'i Humoyun degan bir qiz ekan. Qamarxon o'z sirini axiyri shunga aytibdi. Malika ko'ngil yozish uchun tez-tez ovga chiqib turar ekan. Bir kuni erkakcha kiyinib, otasidan ijozat olib, ov itini oldiga solib ovga ketibdi. Bir necha kun yurgandan so'ng bir o'rmonga yetibdi. Tustovuq va qirg'ovullarni ovlabdi, lekin tuzukroq ov uchramabdi. Qamarxon otni boshqa tomonga solibdi va osmono'par tog' oldidan chiqibdi. Qiz toqqa chiqib ketayotgan paytda oldidan bir bo'ri chiqib qolibdi. Qamarxon bir o'q bilan bo'rini o'ldirib, kanizagining qo'liga berib, oldinga qarab yurgan ekan, kiyikka duch kelibdi. Kiyikning qulog'iga tilla xalqa osilgan, shoxida tilladan muhr bosilgan, bo'yniga har xil asl toshlar taqilgan ekan. Qamarxon kiyikni yaxshi ko'rib qolibdi. Qizlarga: «Shu kiyikni o'rab olib, tiriklay tutinglar, kiyikni hech kim qochirmasin, agar kimki qochirsa, yuziga qora surtib, ovdan haydanglar», debdi.

Qizlar Qamarxonning aytganini qilib, qo'llariga kamon olib kiyikning atrofini o'rabdilar. Humoyun o'rtaiga tushib kiyikka kamon tashlabdi. Malika ketma-ket uch marta kamon tashlabdi, ammo kiyikni ilintirolmabdi. Qizlardan uyalib kiyikning orqasidan quvib ketibdi. Kiyik ham otgan toshday zirillab, uchar qushday pirillab ketaveribdi. Kiyik ham, ot ham nihoyatda charchabdi. Kiyik xalloslab bir g'orga kirib ketibdi. Ha, endi tutdim, deb malika subyunib g'orga kirib qarasa, g'or teshik ekan, kiyik naryog'idan chiqib qochibdi. Malikaning jahli chiqib, yana otga minib, kiyikning orqasidan izma-iz quvlabdi. Kiyik tog' yoqalab ketayotgan paytda Ziyod botirga duch kelib qolibdi. Ziyod botir shu tog'da yilqilarni o'tlatib yurgan ekan. Palaxmonga toshni solib kiyikning shoxini mo'ljallab uribdi. Tosh kelib kiyikning biryoq shoxini uchirib yuboribdi. Jonivor kiyik til tortmasdan o'libdi. Ketma-ket malika ham quvib kelibdi. Qarasaki, kiyik o'lib yotibdi. G'azab bilan qilichini qinidan sug'urib:

-Nomard cho'pon! Kiyikni otadigan bo'lsam, allaqachon otardim, maqsadim tiriklayin tutmoq edi, sen nega birovning ovini otasan, — deb otining jilovidan tortib, Ziyod botir tomonga burgan paytda to'satdan yo'lbars paydo bo'libdi. Malikaning oti yo'lbarsdan hurkib orqasiga chekinganda, malika ot ustidan uchib ketibdi. Qo'lidagi yalang'och qilich tirsagiga botibdi. Ziyod botir sher paydo bo'lishi bilanoq palaxmonga toshni solib mo'ljallab turgan ekan. Sher malikaga sakray deganda Ziyod botir sherning oyog'ini mo'ljallab urgan ekan tosh sherning tumshug'iga tegib, til tortmay o'libdi. Keyin kelib qarasaki, yuziga nikob tutgan bir chiroyh yigit behush bo'lib yotibdi. Yigit darrov ko'ylagini yechib, yengini yirtib, qizning qilich kesgan qo'lini tang'ib qo'yibdi.

Bu bechora bekorga o'lib ketmasin deb, suv olib kelib yuziga sepibdi. Yuzidan niqobini olib, suv ichirmoqchi bo'lgan ekan, qarasa, qora sochlari yuziga yoyilib ketgan Qamarxon. Yigit o'zini yo'qotib qo'ya yozibdi.

Oradan bir oz o'tgandan keyin qiz o'ziga kelibdi. Ko'zini ochib qarasa tepasida cho'pon yigit yig'lab o'tirganmish. Tikilib qarab, Ziyod botirni tanibdi va quvonganidan yana hushidan ketidbi. Shu payt Oamaming kanizaklari yetib kelishibdi. Qarashsa, bir sher o'lib yotibdi, malika behush, cho'pon yigit tepasida suv sepib o'tiribdi. Qizlar darrov otdan tushibdilar. Humoyun yugurganicha kelib malikaning boshini tizzasiga olib, ko'zidan yosh to'kib turgan paytda malika hushiga kelibdi. Malikani shaharga olib qaytishmoqchi bo'lganda unamabdi. To tuzalmagunimcha shu yerdan jilmayman, debdi. O'sha yerda chashma, chashma yonida ikki tup daraxt bor ekan, soyasi ikki botmon yerga tusharkan. Malikaning bargohini o'sha yerga tikishibdi. Malika Ziyod botir tanirinin deb, undan: «Siz bu yerda qachondan beri cho'ponlik qilasiz!» deb so'rabdi. Ziyod botir, nima bo'lsa bo'lar, rostini aytib qo'ya qolay deb: «Sizning otangiz haydab yuborgandan beri», debdi. Malika Ziyod botirdan kechirim so'rab:

-Menda ayb yo'q, — debdi. Ziyod botir quvonib, otasini chaqirib kelibdi. Otasi: «Bu aziz mehmonlami ziyofat qilishimiz kerak», deb qishloqdan bir katta qozon keltirib, bir necha qo'yni so'yibdi. Cho'pon ota qizlarga:

-Chanqagandirsizlar? — deb choralarda qimiz quyib berib turibdi. Oradan bir qancha kun o'tibdi. Malikaning yarasi ham tuzala boshlabdi.

Endi so'zni malikaning otasidan eshiting.

Malika ovga chiqib ketganiga o'n besh kun bo'libdi hamki, undan darak bo'lmabdi. Otasi bir pahlavonni chaqirib, unga bunday debdi:

-O'n besh kun bo'libdi, haligacha malikadan darak yo'q, borib bir xabar olchi, qayerda ekan? Uni qayerda uchratsang ham, olib kel.

Bu pahlavon malikani sevar ekan. Shuning uchun ham podshoga astoydil xizmat qilib yurar ekan. Podshoning buyrug'ini eshitib, pahlavon benihoya xursand bo'libdi. U yigitlariga: «Malikani qayerda yolg'iz topsak, u bilan suhbat quramiz», deb, bir xum sharob olib, safarga chiqibdi. U besh kun deganda malikani topibdi. Qarsa, malika Ziyod botir bilan suhbat qilib o'tirgan emish. Buni ko'rib pahlavonning joni chiqib ketibdi. Bir narsa degani malikadan qo'rqib, otdan tushibdi. Ular bilan so'rashib bo'lib, malikaga:

-Otangiz sizdan xavotir olib, meni yubordilar, — debdi.

Shu payt mehmonlarga ovqat olib kelishibdi. Pahlavon ham olib kelgan sharobini o'rta qo'yibdi. Ikki-uch qiz kosagul bo'lib, sharob quyib turibdi. Pahlavon arzimagan narsadan bahona topib, Ziyod botirni uribdi.

Ziyod botir achchig'lanib, pahlavonni bir urgan ekan, chakagi tushib, og'zidan ko'pik oqib, o'sha ondayoq o'lib qolibdi. Pahlavonning yigitlari Ziyod botirga tashlanibdilar. Ziyod botir jang qilib, ularni yengibdi. Jang tugagandan keyin, malika: «Endi bu yerda turib bo'lmaydi, boshqa bir yurtga ketaylik», debdi, keyin kanizaklariga javob berib:

-Otam meni so'rasa: «Malika bir kiyikning orqasidan quvlab ketdi, biz axtarib topolmadik, deb aytinglar», — debdi va ular bilan xayrlashibdi.

Ziyod botir bilan malika cho'pon otaga qulluq qilib xayrlashib, ikki otga minib, yo'lga ravona bo'lishibdi. Ular ov qila-qila bir necha kun deganda bir shaharga yetib boribdilar. Bu shahaming nomi Hirot ekan. Ana shu yerda Sulton Husayn Mirzo podsho ekan. Bular kelib bir saroyga tushibdilar. Bir necha kun o'tgandan keyin Ziyod botir qizni nikohlab olish uchun domla axtaribdi. Shu saroyga yaqin joyda bir shayx yashar ekan. Ziyod botir shayxnikiga boribdi. Shayx uyda yo'q ekan. Uning o'g'li Ziyod botirning gapini eshitib: «Men o'zim nikohlab qo'ya qolay», debdi va Ziyod botir bilan saroyga kelibdi. Nikoh paytida qizga ko'zi tushib: «Attang, shunday chiroyli qizni nikohlab qo'ldan berib qo'ydim», deb afsuslanibdi.

Qiz dardida yigit Ziyod botir bilan og'ayni bo'lib qolibdi.

Shayxning o'g'li:

-Musofirni siylamoq sunnati payg'ambar, — deb ularni bot-bot ko'rgani kelib turibdi.

Ziyod botir malika bilan maslahatlashib, bir temirchiga shogird tushibdi. Temirchiga uning xizmati yoqib qolibdi. Temirchi qarasaki, yigit o'zidan ham hunarmand. Temirchi insofli odam ekan. Uni o'ziga sherik qilib olibdi.

Bir kuni shayxning o'g'li Ziyod botirga:

-Birodar, — debdi, — siz saroyda yotmang, men mahallamdan bir hovli topib qo'ydim. Shuni sizga olib beraman.

-Hovli olishga pulim yo'q, — debdi Ziyod botir.

-Sizda bo'lmasa, bizda bor, menga topganingizda berarsiz, — debdi shayxning o'g'li.

Ziyod botir hovlini ko'rib yoqtiribdi. Ishlab orttirgan puli bor ekan, pulni naqd sanab beribdi. Shundan keyin er-xotin ko'chib kelishibdi. Kunlarning birida shayxning o'g'li Ziyod botirga:

-Xotiningiz yosh narsa, siz ishga ketgan paytda u yolg'iz qoladi. Biznikida bir zohid kampir bor, o'zi befarzand. Shu kampirni siznikiga yuborsam qanday bo'ladi? — debdi.

Ziyod botir undan juda xursand bo'libdi.

Shayxning o'g'li bir makkor kampirni topib, unga pul beribdi va: «Shu Qamarxonni nima qilib bo'lsa ham yo'ldan uring», deb uni Ziyod botirning uyiga oborib qo'yibdi.

Kampir Qamarxon bilan ona-boladay bo'lib ketibdi. Kampir ertayu kech qo'lida tasbeh, namoz o'qir ekan. Qamarxon eri ishga ketgandan keyin gilam to'qir, zeriksa ashula aytar ekan. Kampir asta-sekin qizning pinjiga kirib, shayxning o'g'lini maqtay boshlabdi. Qamarxon makkor kampirning maqsadini sezib qolibdi.

Eriga kampirning gaplarini aytib beribdi. Shunda Ziyod botir:

-Men ham nega bu mehribon bo'lib qoldi, deb o'ylagan edim-a. Sababi buyoqda ekan-da! Mayli, hozircha indamay turaylik-chi, yana nima der ekan,-debdi.

Ertasiga makkor kampir yana shayxning o'g'lidan gap ochib:

-Sizni u kishi juda yaxshi ko'radi, u bilan bir gaplashsangiz nima qiladi? — debdi.

Qamarxonning achchig'i kelib, kampirning lunjiga bir tushiribdi. Kampirning lunji shishib, tili og'ziga sig'may, yigitning oldiga boribdi va bo'lgan sinoatni aytib beribdi. Shayxning o'g'li achchiqlanibdi. Kallakesar bir tanishi bor ekan uni chaqirib:

-Bu kecha hech qayerga borma, bir ish bor, shuni bajarasan, — debdi.

Shayxning o'g'li yarim kechada xizmatkori bilan Ziyod botirning uxlaganini bilib, ikkisi devordan oshib tushibdi. U Ziyod botirni o'ldirib, xotinini olib chiqib ketmoqchi ekan. Qamarxon odam sharpasini sezib, Ziyod botirni uyg'otibdi. Ziyod botir qarasa, ayvon oldida ikki odam turgan emish. Yostig'i tagidan xanjarini olib, shayxning xizmatkoriga tashlanibdi va uning kallasini shatta olib, unga hamla qilmoqchi bo'lib turgan shayx o'g'lini ham dast ko'tarib yerga uribdi. Shayxning o'g'li Ziyod botirning oyog'iga yiqilib, ikkirichi bunday noma'qul-chilik qilmaslikka so'z beribdi.

Malika «O'ldiraylik» desa ham, Ziyod botir: «Mayli ketsin bu nomard. Ikkinchi bunday ishni qilmasin!» deb uni uydan chiqarib yuboribdi.

Shayxning o'g'li bu yerdan chiqqandan keyin: «Nega podshoga borib chaqmayman?» deb saroyga yo'l olibdi.

Sulton Husayn Mirzo o'z yaqinlari bilan o'tirgan ekan, orasida shayx ham bor ekan. Shayxning o'g'li podshoga ta'zim qilib:

-Shohim, yaqinda yurtimizga bir oqpadar yigit bir qiz bilan kelgan edi. Men ulrni durust odam deb nikohlab qo'ygan edim. Keyin hovli ham olib berdim. Shu kecha ko'chadan o'tib ketayotsam, hovlidan kulgu eshitildi. Qarasam, haligi oqpadaming xotini yigitlar o'rtasida o'ynab turgan ekan. Achchig'imga chidolmay yigitni chaqirib: «Bu nima buzuqlik, uyalmaisanmi?» degan edim, u menga bir musht soldi. Shohim, shu yaramas yigitni shahardan badarg'a qilishga farmon berishingizni so'rayman. Buning kasofati hammamizga tegmasa deb qo'rqaman, — debdi.

Sulton g'azablanib:

-Uni shahardan haydab yuborish emas, hoziroq kallasini tanidan judo qilaman! — debdi va Ziyod botirnikiga navkarlarini yuboribdi. Sulton yuborgan kishilar Ziyod botir bilan Qamarxonning qo'llarini orqalariga bog'lab olib kelishibdi. Sulton Qamarxonni ko'rishi bilanoq o'zini yo'qotib qo'yibdi. Ikkovining hech qanday gunohi yo'qligini sezibdi. U Ziyod botirdan:

-Sen bu qizni qayerdan olib kelgan eding? — deb so'rabdi.

-O'zidan so'rang, — debdi Ziyod botir.

Podsho Ziyod botirga:

-Sen bu qizni bizga tashlab ketaver! — debdi.

Ziyod botir unamabdi. Sulton achchig'lanib:

-Jallod! Olib chiq buni, dorga os, — debdi. Botirni jallodlar olib chiqib ketishayotganda Ziyod botir chaqqonlik bilan ular qo'lidan chiqib qochibdi va to'ppa-to'g'ri xaligi temirchi ustaning uyiga boribdi. Bo'lgan voqeani unga so'zlab beribdi. Temirchi: «Falon joyda bir g'or bor, sen o'sha yerga borib turasan, men shaharda nima gap bo'lganini bilib senga aytaman», debdi.

Endi gapni malikadan eshiting.

Sulton Qamarxonga yaxshi gapirib: «Men sizni malikalaming malikasi qilay, siz menga tegishga rozilik bering», deb ko'p yalinsa ham bo'lmabdi. Sulton g'azablanibdi. Sultonning bog'ida yashirin bir zindon bor ekan, uni hech kim bilmas ekan. Qamarxonni shu zindonga solibdilar. Ziyod botirning qochganini eshitib, shahar darvozalarini berkitib, qidiruv boshlashibdi. Ertasiga kechqurun temirchi usta Ziyod botir yashiringan g'orga boribdi.

-Endi nima qilamiz, bir tuzukroq yo'l ko'rsating? — debdi Ziyod botir.

-Bir yo'l bor, — debdi, — sen vazir Alisher Navoiy bilan uchrashasan, butun voqeani unga aytasan, dardingga o'sha kishi da'vo topa oladi, — debdi temirchi o'ylab-o'ylab.

Ziyod botir yarim kechada g'ordan chiqib, Navoiyning uyiga boribdi. Eshikda turgan mulozimga salom berib:

-Men Navoiy hazratlarinikiga uzoq yerdan mehmon bo'lib keldim, — debdi.

Navoiy kechalari uxlamasdan ishlar ekan. Mulozim Navoiy huzuriga kirib: «Bir mehmon yigit uzoqdan sizni ko'rgani kelibdi», degan ekan, Navoiy:

-Chaqir, kirsin! — debdi.

Ziyod botir Navoiy bilan ko'rishib-so'rashib bo'lgach, boshidan o'tgan voqealarni birma-bir bayon qilibdi. Navoiy uni yupatib:

-Xotirjam bo'ling sulton Qamarxonni o'ldirmaydi, ertaga xabar olaman, — debdi.

Navoiy ertasi podsho saroyiga borib, to'g'ri boqqa kiribdi. U sultonning shu yerda yashirin zindoniborligini bilar ekan. Bog'ni aylanib yurganda bog'bonga duch kelibdi. Bog'bon Navoiyga ta'zim qilib, bir dasta gul tutibdi. Bu kishi ham bog'bonlik, ham zindonbonlik qilar ekan.

Navoiy bog'bonga qarab:

-Qizdan xabar olib turibsizmi? Yoshlik qilib tag'in o'zini o'zi o'ldirib qo'ymasin, — debdi.

-Ha taqsir, xabar olib turibman, sultonning o'zlari ham hozir kelib ketdilar, — debdi bog'bon.

Shu bilan Navoiy xotirjam bo'lib, uyga qaytibdi va Ziyod botirga qizning sog'salomatligini bildiribdi. O'zi shu kundan boshlab odamlarga podsho bog'iga tomon lahm kovlatibdi. Uch kun deganda lahm kovlanib bo'libdi. Navoiy Qamarxonni zindondan chiqazibdi.

-Senga birodarman, Qamarxon, bajonidil singlim, mening uyimda bir umr tursangiz ham bemalol, birov sizlarga daxl qilmaydi, — debdi Navoiy. Qamarxon bilan Ziyod botir xursand bo'lib Navoiyning uyida yashabdilar. Oradan uch yil o'tibdi. Qamarxon o'g'il ko'ribdi. Bolasi yuradigan bo'libdi. Bir kun Navoiy bog'dan chiqib ketayotganda bola yo'lda suv o'ynab turgan

ekan. Navoiy uni ko‘tarib, qo‘liga gul berib, eshik oldiga yetganida ichkaridan Ziyod botirning ovozi eshitildi:

-Nega yig‘laysan, otangni sog‘inganing bilan borib ko‘rolmaysan. Qo‘y, yig‘lama, yuragimni ezma!

Navoiy buni eshitib, hovliga kiribdi. Qamarxon ko‘z yoshini artib o‘rnidan turib, Navoiyga salom beribdi. Navoiy:

-Xafa bo‘lmang, singlim, yana bir oy sabr qiling, yurtingizga o‘zim oborib qo‘yaman, otangizga ham tushuntiraman, — debdi.

Oradan bir oy o‘tibdi. Navoiy sultondan sayohat bahonasi bilan ijozat olib, o‘zining sirdosh yigitlaridan to‘rttasini hamroh qilib, safar jabdug‘ini rostlabdi. Yigitlar bir hafta ilgari Qamarxon bilan Ziyod botirni shahardan chiqarib, bir tog‘ning bag‘riga qo‘yib kelishibdi. Navoiy bir haftadan so‘ng yo‘lga chiqibdi. Qamarxon bilan Ziyod botirni olib, to‘ppa-to‘g‘ri ularning yurtiga jo‘nabdi.

Bir necha kun yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, oxiri Qamaming yurtiga yetibdilar. Sulton Fotih Navoiyning kelganini eshitib, bir qancha yigitlarini peshvoz chiqaribdi. Navoiyni bir necha kun mehmon qilgandan keyin:

-Xush kelibsiz, xizmat? — debdi podshoh.

Navoiy:

-Sizdan ikki gunohkorning gunohini kechishingizni so‘ragani keldim. Shularning gunohidan o‘tsangiz, bir necha kun turaman, bo‘lmasa, hozir qaytib ketaman, — debdi.

Podsho:

-Agarda gunohkorlar otamni o‘ldirgan bo‘lsalar ham siz tufayli ularning gunohidan kechdim, kim ekan ular? — debdi.

Navoiy Qamar bilan Ziyod botirni chaqiribdi. Qamar kelib, otasiga o‘zini tashlabdi.

Podsho sevinganidan hushidan ketayozibdi.

-Qayerda eding, bolam? — deb yig‘lab yuboribdi. Qamar yo‘qolganidan so‘ng Sultonning darak solmagan joyi qolmagan ekan.

Sulton shahar xalqiga yetti kun ziyofat beribdi. U Ziyod botirni o‘ziga lashkarboshi qilib tayinlabdi. Ziyod botir tog‘da cho‘ponlik qilib yurgan otasini chaqirtirib kelibdi. Navoiy bir necha kun turgach, Hirotga qaytibdi. Ziyod botir bilan Qamarxon shod-hurramlik bilan umr kechiribdilar.

**“Sehrli ertaklar” nomli kitobdan
O‘zbek xal ertagi**